

## **9-SHO‘BA: OLIY TA’LIM MUASSASASI TARBIYAVIY FAOLIYATIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

### **MILLIY EKOLOGIK TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONIDA MINTAQAVIY TA’LIM MUASSASALARINING O’RNI.**

**Umurzaqova Umida Nosirjonovna  
Navoiy Innovotsiyalar Universiteti dotsenti,  
geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,(PhD)**

**Annotatsiya:** Maqlada ekologik ta’lim davlat sohalarining ustivor yo‘nalishlaridan biri ekanligi, ta’lim muassasalarida ekologik o‘quv jarayoni jahon standartlari asosida shakillantirilishi imkoniyatlari va kamchiliklari xaqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo atrof-muhit va o‘zgarishini o‘rganish universiteti (Green Universitiy) tashkil etilishi va bu borada kutilyotgan natijalar taxrirlangan.

**Kalit so‘zlar:** barqaror rivojlanish va ekologik ta’lim, Green Universitiy, “Hub and Spoke”, atrof muhit muammosi, ekologik xuquq.

### **РОЛЬ РЕГИОНАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ПРОЦЕССЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация:** в статье размышляется о том, что экологическое образование является одним из доминирующих направлений деятельности государства, о возможностях и недостатках формирования экологического образовательного процесса в образовательных учреждениях на основе мировых стандартов. Кроме того, прогнозируется создание Центральноазиатского исследовательского университета окружающей среды и изменений (Green University) и ожидаемые результаты в этой области.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие и экологическое образование, Green Universitiy“Hub and Spoke”, экологический вызов

### **THE ROLE OF REGIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN THE PROCESS OF IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF NATIONAL ENVIRONMENTAL EDUCATION**

**Abstract:** the article reflects on the fact that environmental education is one of the dominant areas of government activity, on the possibilities and disadvantages of forming an environmental educational process in educational institutions based on world standards. In addition, the creation of the Central Asian Research University of Environment and Change (Green University) and the expected results in this area are predicted.

**Keywords:** sustainable development and environmental education, Green University, "Hub and Speak", environmental problem, environmental problem

Kuchli davlat mamlakatni yashab ketishi haqida emas, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish va ishtimoiy – iqtisodiy yuksalishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bu esa barqaror rivojlanishning eng asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanib, xalqaro miqiyosda davlatlarning ijtimoiy – iqtisodiy jihatdan uzoq muddatli barqaror rivojlanishining eng asosiy talablaridan biri ekologik xafsizlikni ta’minlash masalalasi hisoblanadi.

Bugungi kunda atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq global muammolar barqaror rivojlanishga e’tibor qaratish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida yangi formatdagи mutaxassislar va ekspertlarni tayyorlash, shuningdek, muammolarni hal qilishda innovatsion yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda [3].

Bu borada so‘nggi yillarda tabiat va jamiyat munosabatlari, ekologik ta’lim va tarbiya masalalari O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylantirilib, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilmallikni saqlash, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish hamda qattiq maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish yo‘nalishlarida konsepsiya va strategiyalar qabul qilindi. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, ekologik talofatlarni samarali boshqarish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan yuqori malakali, xalqaro darajadagi mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit tizimi yetarli emasligi, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni boshqarish sohasidagi intellektual va ilmiy salohiyatdan to‘liq foydalanish darajasining pastligi, shuningdek, AKTning zamonaviy yutuqlarini sohaga jalgan etish, mintaqaviy darajada barqaror rivojlanishning dolzarb masalalarini o‘rganish bo‘yicha yagona tadqiqot platformasi mayjud emasligi kabi qator muammolar ushbu sohaga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda [2;].

Mahalliy, mintaqaviy va global ekologik muammolarni taxlil qilish resurslardan samarali foydalanish, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, O‘zbekistonning ilmiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishda innovatsion g‘oyalar, amaliyot va texnologiyalarni tatbiq etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagи “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81 sonli farmoniga muvofiq, Markaziy Osiyo atrof-muhit va o‘zgarishini o‘rganish universtiteti (Green Universiteti) tashkil etilishi rejalashtirildi [1].

Yangi tashkil etilyotgan oliygoh Universitet maqomini oladi va u “Hub and Spoke” tamoyili asosida tashkil etiladi. Ushbu model strategik va o‘zaro manfaatlil hamkorlikka, yaxlit o‘quv tizimini yaratishga, resurslarni optimallashtirishga, talabalar va mutaxassislarning harakatchanligiga asoslanadi, shuningdek, mahalliy mutaxassislar salohiyatini oshirish, bilim va tajriba almashishga yordam beradi.

Universitetining ta'sischisi Ekologiya, atrof – muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi hisoblanib, o'quv jarayoni nufuzli xorijiy oliv ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda tashkillashtirilishi rejalashtirildi. Universitetning bitiruvchilari Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tamonidan Milliy kadrlar zaxirasiga, besh yillik ish stajiga ega bo'lgandan so'ng ixtisosligi bo'yicha rahbar lavozimiga tayinlanadigan istiqbolli nomzodlar ro'yihatiga kiritiladi.

- Universitetning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:
- O'zbekiston va Markaziy Osiyoning muhim ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy muammolarini hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar, olimlar, tadqiqotchilar, rahbarlar va tadbirkorlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- milliy, mintaqaviy va xalqaro innovatsion tizimlarni qo'llab-quvvatlash uchun ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni boshqarish va barqaror rivojlanish sohasida yangi bilimlarni joriy etish hamda fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirish;
- jahoning yetakchi "yashil" universitetlari tomonidan qo'llaniladigan ilg'or ta'lim dasturlari, innovatsion pedagogik uslub va texnologiyalarni ishlab chiqish, moslashtirish va joriy etish;
- ilmiy tadqiqot va amaliy bilimlarni integratsiyalash, faoliyatni klaster asosida tashkil etish, akademik va kasbiy tajriba almashish, ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini joriy etish;
- xorijiy, davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalarini, shuningdek, O'zbekiston, mintaqa va jahon ilmiy markazlarini birlashtiruvchi bo'g'in bo'lib xizmat qiluvchi samarali platforma yaratish;
- xorijiy ilmiy ekspertlarni jalb qilish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va xalqaro reytinglarda yetakchi o'rnlarni egallagan dunyoning "yashil" universitetlari bilan strategik hamkorlik aloqalarini o'rnatish;
- mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha uzluksiz ta'lim tizimini, shuningdek, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, o'rmon xo'jaligi va gidrometeorologiya sohalarida rahbar kadrlar uchun maxsus ta'lim dasturlarini yaratish;
- universitet tarkibiga kiruvchi ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, moddiy-texnik bazasi va ilmiy kadrlar salohiyatini mustahkamlash.

Dars mashg'ulotlari o'zbek, rus va ingliz tillarida kredit-modul tizimi asosida ma'ruza, laboratoriya va individual mashg'ulotlar, guruhlarda amaliy ishlar, tanqidiy fikrlash, muammo va tajribalar yordamida olib boriladi. Universitetning bakalavriat bosqichida davlat ta'lim standartlari talablariga muvoffiq holda – o'zbek, rus, ingliz tilida va Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy tillaridan birida darslar o'tiladi. Vazirlik bilan kelishgan holda magistratura va doktoranturaga qabul qilish shartlarini belgilash rejalashtirildi.

O'quv jarayoni "fan – ta'lim – ishlab chiqarish" integratsiyasi tamoyili asosida tashkil etilgan bo'lib, birinchi kursdan boshlab talabalarga sanoat va ilmiy markazlarda malakaviy amaliyot o'tash, magistrlarga esa yetakchi mutaxassislik

bo‘yicha o‘qishni davom ettirish, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali xorijiy oliv ta’lim tashkilotlari va nufuzli xorijiy kompaniyalarda malakaviy amaliyot o‘tash imkoniyati beriladi. Respublikamizda va jahonda talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlarda yetuk, istiqbolli mutaxasislar, ayniqsa, pedagog va ilmiy kadrlarni tayyorlash, ularni xorijdagi nufuzli ta’lim tashkilotlarida malaka oshirish ishlarini tashkillashtirnish belgilab olindi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda ekologik ta’lim tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish, yoshlar o‘rtasida ekologik bilim va madaniyatni keng targ‘ib qilish, ekologiya sohasini ilg‘or innovatsion texnologiyalarni jalb etgan holda yanada takomillashtirish, yoshlarni ona tabiatni sevish uni ko‘z qorachig‘idek asrashni targ‘ib qilish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Respublikada ekologik ta’limni muvofaqqiyatli tashkil etish uchun davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari, shuningdek, ta’lim sohasida ilmiy – tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy metodik muassasalar va ularga qarashli tashkilotlar orqali joriy etilmog‘i lozim.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekoliya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81 sonli farmoni.
2. Бирлашган миллатлар ташкилоти европа иқтисодий комиссияси. Атроф – муҳит ҳолатининг шархи // ЕИК/СЕР/156. 2010., 8-12-Б.
3. А.Эргашев. Т.Эргашев. Экология, биосфера ва табиатни муҳофаза қилиш// Янги аср авлоди 2015 72-Б

## **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI HUQUQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DEONTOLOGIK YONDASHUV**

**Munira Raupova Murodovna**

**O‘zbekiston, Navoiy davlat pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya  
kafedrasi o‘qituvchisi (PhD)**

**Annotatsiya:** Maqolda bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy kompetentligini rivojlantirishning mazmun mohiyati, huquqiy kopmetenlik tushnchasi ta’rifiga olimlarning yondashulari asosida yoritib berilgan. Bunda bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy kopmetentligini rivojlantirishda deontologik yondashuvning ahamiyati tahlili qilingan. Deontologik yondashuv mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni huquqiy ijtimoiylashtirish texnologiyasining tasnifiy belgilari, maqsadga yo‘nalganlik jihatlari, texnologiyaning konseptual qoidalari va tamoyillari yoritib berilgan

**Kalit so‘zlar:** kompetensiya, huquqiy kompetentlik, deontologik yondashuv, kasbiy fazilat, huquqiy ijtimoiylashuv, axloq, burch, xulq-atvor, kognitiv, aksiologik hissiy, refleksiv, ratsional, funksional komponentlar